

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.U.Xamidjanov</b>	
Sport kurashi turlariga saralash va erta yo'naltirishda yakkakurash elementlariga ega harakatlari o'yinlardan foydalanish metodlari.....	85
<b>A.A.Parmonov</b>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishga doir tajriba-sinov ishlari natijalarini ilmiy-nazariy tahlili .....	90
<b>M.A.Tursunboyeva</b>	
Tabiiy fanlar fakultetlarida ingliz tilini o'qitishning mazmuni tushunchasining lingvodidaktik tavsifi .....	97
<b>M.I.Boymanova</b>	
Xalqaro baholash dasturlari talablari asosida o'quvchilar kompetentsiyasini shakllantirish .....	102
<b>A.Matkarmov</b>	
O'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatini ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik omillari (xalqaro baholash tadqiqotlari misolida) .....	105
<b>N.M.Xodjibolayeva</b>	
Al-Farg'oniy va Abu Rayhon Beruniyning tabiiy-ilmiy qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirish masalalari .....	110
<b>M.Sh.Dehqonova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish konsepsiysi .....	114
<b>N.Sayimbetova</b>	
Talabalarni loyihaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari .....	117
<b>A.Abdullayev</b>	
Jismoniy mashqlar inson "Hayotiy quvvati"ni tiklash vositasi .....	121
<b>J.Sh.Mamayusupov</b>	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish zarurati .....	125
<b>S.Abdullayev</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini kognitiv kompetentligini shakllantirishning pedagogik mazmuni .....	129
<b>D.O.Djalilova</b>	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining germenevtik kompetentligini rivojlantirishning mazmun-mohiyati .....	138
<b>М.М.Азизов</b>	
Что такое нордическая ходьба (nordic walking), финская ходьба, северная ходьба с палками, скандинавская ходьба? .....	141
<b>L.Z.Xolmurodov</b>	
9-10 yoshdagи bolalarning muvozanat saqlash funksiyasini rivojlantirishning yoshga xos me'yorlari .....	147
<b>I.M.Saidov</b>	
Ijtimoiy-madaniy kompetentlikning ilmiy tavsifi .....	151
<b>O.A.Xo'jaqulov</b>	
Bo'lajak ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompyetyentlikni rivojlantirishning pyedagogik shart-sharoitlari .....	155

## FALSAFA

<b>A.A.Qambarov</b>	
Abdurauf fitrat ijtimoiy-siyosiy va madaniy faoliyatining falsafiy tahlili .....	161
<b>B.B.Namozov</b>	
Movarounnahrda temuriylar davrida tasavvuf ijtimoiy ma'naviy hodisa sifatida .....	166
<b>M.T.Voxidova</b>	
Yoshlarda barqarorlik va bag'rikenglikni namoyon bo'lishining ijtimoiy-axloqiy jihatlari .....	172
<b>I.M.Arzimatova</b>	
Ayol rahbarlarning axloqiy va estetik madaniyatini integratsiyalash asosida "Rahbar ayol" portretini shakllantirish vazifalari .....	176

**XALQARO BAHOLASH DASTURLARI TALABLARI ASOSIDA O'QUVCHILAR  
KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH**

**ФОРМИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ТРЕБОВАНИЙ  
МЕЖДУНАРОДНЫХ ПРОГРАММ ОЦЕНИВАНИЯ**

**BUILDING COMPETENCE OF STUDENTS ON THE BASIS OF REQUIREMENTS OF  
INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS**

**Boymanova Muxlisa Ismoil qizi<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Farg'onan davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

*Xalqaro baholash dasturlari talablari asosida o'quvchilarning kompetentsiyasini shakllantirish mavzusi dolzarb ta'limiylar mavzu bo'lib, mazkur maqolada milliy ta'limg sifatini oshirish va modernizatsiyalashtirish uchun ilg'or horijiy xalqaro baholash dasturlari PISA, PIRLS, TIMSS kabi tadqiqotlar o'rganilib, ular asosida o'quvchilar kompetentsiyasini shakllantirishning ta'limg tizimidagi o'mni va ahamiyati haqida fikr-mulohazalar yoritib berilgan.*

**Аннотация**

Тема формирования компетентности студентов на основе требований международных оценочных программ является актуальной образовательной и научной темой. В данной статье изучаются передовые зарубежные международные оценочные программы, такие как PISA, PIRLS, TIMSS и др., с целью совершенствования и модернизировать качество отечественного образования, на их основе выделены мнения о роли и значении формирования компетентности учащихся в системе образования.

**Abstract**

*The topic of forming students competence based on the requirements of international assessment programs is an urgent educational and scientific topic. In this article, advanced foreign international assessment programs such as PISA, PIRLS, TIMSS, etc., are studied in order to improve and modernize the quality of national education. Based on them, opinions about the role and importance of the formation of students' competence in the educational system are highlighted.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim, modernizatsiyalash, inson kapitali, bilim, ko'nikma, kompetentsiya, PISA, TALIS, TIMSS, PIRLSS

**Ключевые слова:** образование, модернизация, человеческий капитал, знания, навыки, компетенции, PISA, TALIS, TIMSS, PIRLS

**Key words:** education, modernization, human capital, knowledge, skills, competence, PISA, TALIS, TIMSS, PIRLS

**KIRISH**

Ta'limg sifatini oshirish inson kapitalini shakllantirishning muhim omili ekanligini hisobga olsak, xalq ta'limi tizimida ta'limg sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan biridir. Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lgan yoshlarning bilim, ko'nikma va malakalarini, kompetentsiyalarini, ijodiy g'oyalari va ijodkorligini shakllantirish, hamda ilg'or horijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo'lda xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish muhim ahamiyatga egadir.

Yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, ta'limg sifatini oshirish, xalqaro nufuzli reytinglarda munosib o'rnlarni egallash masalalariga davlat siyosati darajasida, alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada "Ta'limg to'g'risida"gi qonun"<sup>[1]</sup>, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi 997-son "Xalq ta'limi tizimida ta'limg sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori<sup>[2]</sup>, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi<sup>[3]</sup> Farmon hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish xalqaro baholash dasturlari xususan PISA, PIRLSS, TIMSS muayyan darajada xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotlar nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilib, professional va ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida tashkil etiladi. O'z navbatida ushbu tadqiqotlarda ishtiroy etish uchun kirishgan davatlarda alohida tuzilmaning (ko'p hollarda Milliy markazlar deb yuritiladi) mavjud bo'lishi tadqiqotlar muvaffaqiyatlari amalga oshirilishining asosiy omillaridan hisoblanadi.

## PEDAGOGIKA

Chunki, xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish va uni tashkil etish uchun alohida ilmiy va professional darajadagi yondashuv talab etiladi. Ushbu maqsad yo'lida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lrim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tizimida Ta'lrim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etildi.

Xalqaro baholash dasturlarning ahamiyati shundaki, ulardagi topshiriqlar namunalari respublikadagi bir nechta maktablarda tajriba-sinovdan o'tkazilib, takomillashtirildi. Ulardan sinfdan tashqari va to'garak mashg'ulotlari davomida yoki mustaqil ravishda o'quvchilarning savodxonligini oshirish, berilgan topshiriqlarni yechish orqali ularning ijodi, mantiqiylar fikrlash va hayotiy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, 2022-yilda o'tkaziladigan xalqaro PISA va PIRLS tadqiqotlariga tayyorgarlik ko'rishga tavsiya etildi.

Ko'rib, tahlil qilingan ma'lumotlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi ta'lrim tizimida xalqaro baholash dasturlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lrim sifatini xorijiy mamlakatlar bilan taqqoslash, shuningdek, solishtirma tahlillar asosida ta'lrim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan strategik qarorlar qabul qilish, tadqiqotlarda uzlusiz ishtirok etish va davriy ravishda o'zgarishlarni kuzatib borishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan. Shu bilan birga, ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun zaruriy hujjatlar tasdiqlangan, mazkur sohada salohiyatni va kasbiy rivojlantirishni ta'minlashga qaratilgan o'quv-metodik va video materiallar ishlab chiqilgan.

Xalqaro baholash dasturlari, ta'lrim sifatini oshirish, modernizatsiyalash, milliy baholash tizimini takomillashtirish yo'lida bir qancha afzalliklar va imkoniyatlarga ega.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ta'lrim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar O'zbekiston ta'lrim tizimi uchun yangilik bo'lganligi, unda o'quvchilar 2021 va 2022-yillarda ilk marotaba qatnashganliklari sababli, bu tadqiqotlar nisbatan zamonaviydir. O'zbek olimlaridan M.Quronov, A.Sh.Muxsiyeva, B.X.Xodjayev komptentsiyalar bo'yicha, rus olimlari G.S.Kovalyeva, L.O.Roslova, G.A.Sidorova, A.Y.Petenlar, horij olimlaridan Andreas Shlyaxer[4], R.Adams[5], Griffin,P,E.Care[6], Jorj Morgan V.S.Millis, Michail Martin[7] kabilar xalqaro baholash tizimi,dasturlar va o'quvchilar kompetentsiyasini ilmiy-metodologik jihatdan o'rganishmoqda.

## MUHOKAMA

Ta'lrim tizimida olib borilayotgan islohotlar muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning bilimi,tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda innovatsion ta'lrim-tarbiya texnologiyalaridan foydalana olishiga pedagogik tayyorgarligiga, ma'suliyatligiga, malakali mutaxassislarga ta'lrim-tarbiya berish va barkamol inson darajasida tarbiyalab, voyaga etkazishga nisbatan shijoatiga bog'liq. Har qanday ta'lrim muassasasida ta'lrim-tarbiyaviy jarayon bevosita o'qituvchi ishtirokida tashkil qilinadi va olib boriladi. Zamonaviy talablarga mos ijtimoiy sharoitda ta'lrim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o'quvchilarning hayotiy kompetentsiyalarini shakllantirish, pedagogik faoliyatda ularni bilimli, odob-axloqli, e'tiqodli, vatanparvar, mehnatsevar, yuksak ma'naviyatli barkamol inson qilib tarbiyalash va turli kasbga yo'naltirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan pedagogik jarayon xisoblanadi.

O'quvchilarni kompetentsiyasini shakllantirishda pedagogning mahorati va salohiyati juda muhim ahamiyat kasb etishini hisobga olsak,xalqaro tadqiqotlarga tayyorlanish jarayonida o'qituvchilarni metodik va amaliy jihatdan ushbu tadqiqotlarga tayyorlab borish dolzarb hisoblanadi.Ularning bilim ko'nikmalari orqali o'quvchilarga kerakli yo'l-yuriqlar va tavsiyalar berib boriladi. O'qituvchining yuksak tayyorgarligi o'quvchida bilim ko'nikma va malakalar shakllanishida muhim omil bo'ladi va ularda tayanch kompetentsiyalar shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarni xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorgarlik ko'rish jarayonida jamiyatning shaxsga nisbatan axloqiy talablariga muvofiq keluvchi xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga o'qituvchi tomonidan pedagogik mahorat qonuniyatlarini asosida ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Ta'lrim tarbiyaning mohiyati va mazmuni mamlakatning ijtimoiy-siyosiy maqsadlarini ifodalaydi, jamiyatning fuqarolar oldiga qo'yadigan talablaridan kelib chiqib asoslanadi. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liqligi qadimdan o'z isbotini topgan.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiyaning maqsadi ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar

mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazishdan iborat. PISA dasturi tashabbuskori Andreas Shlyaxer: "O'quv dasturlarining o'zini o'zgartirib qo'yish bilan yuqori natija kutish mantiqqa to'g'ri kelmaydi. Buning uchun o'qitish jarayonini, uning ishtirokchilari bo'lgan o'quvchilar va ularning ota-onalarining dunyoqarashini o'zgartirish lozim. |Bunda esa o'qituvchilar mahorati, bilim va saviyasining muntazam o'sib borishi hal qiluvchi kuch ahamiyat kasb etadi. Zero, biz o'quvchilarni hozirgi zamon uchun emas kelajak uchun tayyorlashimiz kerak" deb aytib o'tadi.

O'quvchilarning kompetentsiyalarini shakllantirish dunyo miqyosidagi raqobatbardoshlilikni ta'minlashning eng muhim mexanizmi hisoblanadi. Uning darajasini oshirishda quyidagi yo'nalishlarda ish olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Funksional savodxonlikning eng yuqori darajasiga yetmagan o'quvchilar guruhini kamaytirishga erishish, o'quvchilarda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirish,barcha o'quvchilarda bilim olish qobiliyatlarni rivojlantirish,shaxsiy kompetentsiyalarni shakllantirish.

### XULOSA

Xalqaro baholash dasturlari talablari asosida o'quvchilarning kompetentsiyasini shakllantirish mavzusidagi tadqiqotining tahlillari o'quvchilarda XXI asr ko'nikma va kompetentsiyalarni rivojlantirishga katta ahamiyat qaratilishi lozimligini ko'rsatmoqda. Buning uchun esa, avvalambor o'qituvchilarning malakasini oshirish, innovatsion o'qitish usullarini joriy qilish alohida ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi umumta'lim muassasalari o'quvchilari xalqaro tadqiqotlarda ishtiroy etishi orqali quyidagilarga erishish mumkin:

- yurtimizdagi ta'lim tizimining yutuq va kamchiliklari yuzasidan o'z vaqtida axborot olish;
- ta'lim tizimida olib borilayotgan chora-tadbirlar va dasturlarning ta'sirini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi;
- ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakatning nufuzini mustahkamlashga yordam beradi;
- o'quvchilarni fanlararo uyg'unlik asosida baholash, dunyo bo'yicha umumiyligi va har bir mamlakat kesimida ta'lim jarayonlarini chuqur tahlil qilish;
- ta'lim sifati va samaradorligiga yangicha qarash, zamonaviy, kompetentsiyaviy yondoshuvlar, ya'ni o'quvchilarning olgan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarni baholash va rivojlantirish yondashuvini olib kirish;

Shuningdek tizimda tub islohotlar va burilishlarga sabab bo'ladigan strategik qarorlar qabul qilish uchun zaruriy ma'lumotlarni olish imkoniyatlari yaratiladi.

Ushbu islohotlar orqali o'quvchi-yoshlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash tizimini joriy etishga yo'naltiriladi.

Shunday ekan, milliy ta'lim tizimidan farqli bo'lganligi sababli mazkur tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish, shu orqali ta'lim sifatini oshirishga erishish uchun umumta'lim muassasalari jamoalaridan yuksak mas'uliyat, o'quvchilardan yetaricha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik, shuningdek o'qituvchilar zamonaviy innovatsion o'qitish usullarini o'zlashtirishi lozim bo'ladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. O'RQ-637, 23.09.2020y. <https://lex.uz/docs/-5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish to'g'risida" gi 997-sон Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari onlayn milliy bazasi
4. Andres Shlyaxer. Jaxon miqyosidagi ta'lim.-Toshkent: "Zamin nashr", 2022
5. Adams,R.(2022),Country comparisons in PISA:The Impact of Item Selections
6. Griffin,P. and E.Care (2015), Assesment and Teaching of 21<sup>st</sup> Century Skills, Springer Dordchrecht,New York
7. Martin,M. and I.Mullis.(2013),TIMSS 2011 International Results in Mathematics,Chestnut Hill,MA
8. Maqsudov, U. B. Q., & Qosimova, G. E. Q. (2022). TALABALARDA MEDIA SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(11), 988-995.
9. Maqsudov, U. B. Q., & Rahmonova, R. Z. (2022). TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARINING ISTIQBOLLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(12), 1166-1173.
10. Qurbanovich, M. U. B., & Zuhridinovna, R. R. (2022). TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARINING ISTIQBOLLARI.